

INSON HUQUQLARI SHAKLLANISH BOSQICHI: RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA INSON HUQUQLARI

Baxronov R.R

Annotatsiya: *Ushbu maqolada raqamlashtirish davridagi inson huquqlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, inson huquqlarini belgilab beruvchi tegishli hujjatlar haqida so'z ketadi. Insoniyatning yangi avlodini – raqamli huquqlarni shakllantirish muammosiga hamda zamonaviy davlat va jamiyatda raqamli huquqlarni himoya qilish mexanizmlarini shakllantirish maqolada bevosita muhokama qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Inson huquqlari, Inson huquqlari deklaratsiyasi, raqamlashtirish, sun'iy intellekt, axborot jamiyati, huquq evolutsiyasi.*

СТАДИЯ СТАНОВЛЕНИЯ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА: ПРАВА ЧЕЛОВЕКА, ОСНОВАННЫЕ НА ТЕХНОЛОГИЯХ

Бахронов Р.Р

Аннотация: *В данной статье рассматриваются права человека в эпоху цифровизации. В нем также упоминаются соответствующие документы, определяющие права человека. В статье непосредственно рассматривается проблема формирования нового поколения человечества - цифровых прав и формирования механизмов защиты цифровых прав в современном государстве и обществе.*

Ключевые слова: *Права человека, Декларация прав человека, цифровизация, искусственный интеллект, информационное общество, эволюция права.*

FORMATION OF HUMAN RIGHTS IN THE ERA OF DIGITAL TECHNOLOGIES

Bakhronov R.R

Abstract: *This article examines human rights in the age of digitization. It also mentions relevant documents defining human rights. The article directly discusses the problem of forming a new generation of humanity - digital rights and the formation of mechanisms for the protection of digital rights in the modern state and society.*

Key words: *Human rights, Declaration of Human Rights, digitization, artificial intelligence, information society, evolution of law.*

Inson huquqlari muammosi mana necha yildirki dolzarb bo'lgan mavzulardan biri bo'lib kelmoqda va bu masala nafaqat mahalliy doirada, balki jahon doirasida ham ko'tarilgan masaladir.

Inson huquqlar bundan ancha oldin paydo bo'lgan qonunlarda ham aks etgan, undan tashqari sivilizatsiya yuzaga kelgan har bir davrda ham bevosita inson huquqlari aks etgandir.[1]

Tarixiy ma'lumotlarga tayandigan bo'lsak, ilk inson huquqlari bo'yicha hujjat Buyuk Karl tomonidan Bobil davlati bosib olinganidan so'ng miloddan avvalgi 539-yilda joriy etilgan. Unda inson huquqlari bo'yicha ilk ma'lumotlar berilib, insonlarning huquq va majburiyatlari bayon etilgan. Ya'ni quldorlar yoki qullar huquqi, qulni tanlashm quldorning qul oldidagi majburiyatlari, omonat bo'yicha bandlar ham mavjud edi. Shuningdek, irqiy tenglik haqida, istalgan dinga e'tiqod qilish haqida ilk ma'lumotlar aynan ushbu manbada ilk bor keltirilib keyinchalik yaratilgan boshqa huquqiy manbalar uchun asos bo'lgan. [2]

Bu manba keyinchalik BMT tomonida bir nechta tilga bevosita tarjima qilingan, xususan rus, ingliz, arab, xitoy, fransuz tillariga. Uning qoidalari Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasining dastlabki to'rtta moddasida o'z aksini topgan. Unda ta'kidlashicha, "barcha odamlar erkin va teng bo'lib tug'iladilar qadr-qimmati va huquqlari alohida tarzda kafolatlangan. Har bir inson barcha huquq va erkinliklarga ega bo'lishi kerak. Ushbu Deklaratsiya tomonidan e'lon qilingan, irqi, rangi, jinsi, tili, dini kabi hech qanday farq qilmasdan... Har bir inson yashash, yashash huquqiga ega ekanligi belgilangan, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik bevosita belgilab o'tilgan. Hech kim qullikda saqlanmasligi kerak va qul savdosi har qanday ko'rinishda taqiqlangan", - deb keltirilgan ushbu manbada. [3]

Asrlar davomida inson huquqlari masalasiga qiziqish susaymagan. Uning shakllanishi inson huquqlarining avlodlari - bu muayyan tarixiy davrning rivojlanishi va konteksti bilan belgilanadigan doimiy jarayonni o'zida aks etadi. Ya'ni inson huquqlarini yuzaga kelishini umumiy tarzda 3 bosqicha bo'lib o'rganish mumkin:

- Tarixiy bosqich;
- Yangi davr;
- Zamonaviy davr.

Tarixiy bosqich.

Tarixiy bosqichda asosiy manbalar sifatida Buyuk Karl tomonidan chiqarilgan qonunlar yig'indisi, Hammurappi qonunlari, Manu qonunlari, Sali haqiqat kabilarni keltirishimiz mumkin. Ularda asosan quldor va qulning o'zaro huquqlari, bozor munosabatlari, tabiiy huquqlar aks etgan hisoblanadi.

Yangi davr.

Bu bosqichning muhim manbalarini yaratishda Angliyada ishlab chiqilgan 1215-yilgi Erkinlikning Buyuk xartiyasini olish mumkin, undan hech qancha vaqt o'tmay qabul qilingan 1265-yilgi Parlamentga kiritilgan o'zgarishlar XIII asr qonunchiligi keyinchalik esa ingliz qonunchiligi uchun poydevor sifatida hizmat qilgan.

Undan keyingi davrda esa AQSHning qonunchiligi kiritilgan o'zgarish, ya'ni 1787-yili mamlakat Konstitutsiyasi qabul qilinishi va bu normativda ko'plab davlatlarning Konstitutsiyaviy yutuqlaridan foydalangan holda tashkil etilishi e'tiborga molikdir.

1789-yilgi fransuz inqilobidan keyingi, 1791-yilgi Fransuz konstitutsiyaviy islohotlari ham davrning Yevropa huquqshunosligi uchun ulkan sakrash vazifasini o'tab bergan.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, Fransiyaning Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi (1789) inson huquqlari bo'yicha ko'plab zamonaviy hujjatlarning asoschisidir. Xalqaro tamoyillarning ko'p tomonlari, ayniqsa har tomonlama rivojlanishiga asos solgan hujjat sifatida inson huquqlarini hurmat qilish va ularga rioya qilish asnosida keyinchalik butun Yevropadagi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga aylangan normativdir. [4][5]

Yangi bosqich.

Keyinchalik qabul qilingan 1948-yilgi Deklaratsiya o'z asosida aynan yuqoridagi manbadan olgan holda tashkil etgan va unda inson huquqlarining kelib chiqishi, belgilari, bolalar huquqi, ayollar huquqi bevosita batafsil bayon etilgan. [6]

Shuni ta'kidlash kerakki, ko'plab zamonaviy huquqshunoslar inson huquqlari rivojlanib, boyitib, ularning tarkibi va mazmuniga katta e'tibor berib kelishmoqda. Huquq sohasi albatta turli omillar ta'sirida kengayadi. Bundan tashqari, agar ba'zi omillar evolyutsion tarzda harakat qilib boradi, ya'ni har bir holat bosqichma-bosqich tashkil etiladi. Albatta bu sohada Internet qonunchilikdagi sezilarli o'zgarishlarga hissa qo'shadi umuman olganda, xususan, inson huquqlari jadal rivojlanib borishiga, yoki aksincha inson huquqlari ma'lum tarzda aksi ta'sir etib qo'ygan holatlarni kuzatishimiz mumkin.

Raqamlashtirish - bu turli sohalarda raqamli texnologiyalarni keng joriy etishdir. Ya'ni sanoat, iqtisodiyot, xizmat ko'rsatish, ta'lim, madaniyat, huquq va boshqalar [4].

BMTning Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari Mishel Bachelet ta'kidlaganidek: "Raqamli inqilob inson huquqlarining asosiy global muammolaridan biridir. Uning mavjud afzalliklari undagi mavjud xavflarini bekor qilmaydi". [7]

Professor V.D. Zorkin 2018 yil may oyida Sankt-Peterburg xalqaro yuridik forumidagi nutqida hozirda siyosiy masalalarni tartibga soluvchi yangi qonun shakllantirilayotganini, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar "raqamlar dunyosi, katta ma'lumotlar, robotlar, sun'iy intellekt", "raqamli inson huquqlari - mohiyatan universal huquqlarning spetsifikatsiyasi (qonun orqali va bir xil darajada qo'llaniladigan, shu jumladan sud hujjatlari) xalqaro huquq va davlat konstitutsiyalari bilan kafolatlangan inson huquqlari -axborotga asoslangan jamiyatda inson va fuqaroning ehtiyojlari bilan bog'liq ekanligini alohida ta'kidlab o'tgan edi. [8]

Raqamli texnologiyalar davridagi huquqlar deganda odamlarning raqamli asarlarga kirish huquqi, ulardan foydalanish, yaratish va nashr etish, kompyuterlar va boshqalarga kirish, ulardan foydalanish huquqlari tushuniladi. Undan tashqari elektron qurilmalar, shuningdek, aloqa tarmoqlari, eng asosiysi esa Internet tarmog'i orqali manbaga ega bo'lish sanaladi.

Shuningdek, Internetda erkin muloqot qilish va fikr bildirish huquqi va shaxsiy axborot sohasining daxlsizligi, shu jumladan uning allaqachon raqamlangan shaxsiy ma'lumotlarining maxfiyligi, anonimligi huquqi ham yuzaga kelishiga sabab bo'ladi deb

aytish mumkin. Umuman olganda shuni aytish mumkinki, raqamli texnologiya davrida inson huquqlari har tomonlama himoya qilinishi ya'ni uning mualliflik huquqi, shaxsiy huquqi, daxlsizlik huquq, internetdan erkin foydalanish huquqini o'z ichiga oladi.

Raqamli texnologiyani yildan-yilga oshib borishi, su'niy intellekt robotlar bularning barchasi albatta ijobiy foydalardan tashqari zararli oqibatlariga sabab bo'lishi ham mumkin. Ayzek Azimovning "Robototexnikaning birinchi qonuni" yildan-yil o'tavergach buzilmasligiga hech kim kafolat bermaydi. Shu sababli ham bu soha bo'yicha hozirda mutaxassislar bosh qotirishgan, ya'ni raqamli texnologiyaning jadallanib borishi borgan sari inson huquqlarini buzilishiga olib kelmaydimi, insonning daxlsizlik huquqi to'laqonli tarzda saqlanib qoladimi shu kabi savollarga hali aniq bir javob mavjud emas.

BMT Bosh Assambleyasi rezolyutsiyasiga e'tibor qaratib o'tishimiz lozim 2013-yil 18-dekabrda 68/167-sonli "Raqamli muhitda shaxsiy daxlsizlik huquqi" [6], bu texnologik taraqqiyotning keng imkon berishini ta'kidlaydi. Hozirda dunyoning barcha mintaqalaridagi odamlar yangi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib kelmoqda. Ammo ma'lum xavflar ham mavjud hisobalanadi. Gap birinchi navbatda, insonning shaxsiy huquqlarini buzish ehtimoli, kuzatuv va shaxsiy huquqlarga aralashuvning cheksiz imkoniyatlari paydo bo'lib kelayotgani, bunga qaysidir ma'noda zamin yaratib kelinayotgani haqida bormoqda. Undan tashqari yolg'on axborotlar (Fakenews) tarqalib borishi, hakkerlar hujumi, tarmoqlarda hakkerlarning ta'siri fikrimizning yaqqol misolidir. Bu holatlar albatta fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlarining tarqalishi xavfi va umuman kiberjinoyatlar ko'payib boraverishiga sabab bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bu holat barcha davlatlarga birdek qaratilgan muhim chaqiriqdir. Shaxsiy hayot huquqini hurmat qilish va himoya qilish muhim faktor sanaladi. Va bu holat bo'yicha ham yurtimizda tegishli ishlar olib borilmoqda, xususan Konstitutsiyamizda ham bu holat bevosita qayd etilgan bo'lib inson, shaxsiy yozishmalar daxlsizligi huquqiga ega ekanligi yoki Jinoyat qonunchiligimizda internetdagi yolg'on axborotlar, hakkerlik, kiberjinoyatlarga tegishli tarzda jazoga tortilishi belgilab qo'yilgan. Unutmaslik zarurki, insonning shaxsiy huquqi barcha huquqlardan ustun.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Лукашева Е.А Учебник: «Права человека»/2- издание, перераб. – М: Норма: ИНФРА – М, 2011. – 560 б.
2. https://ru.wikipedia.org/wiki/Карл_Великий
3. Всеобщая декларация прав человека: [Утв. и провозглашена Генеральной Ассамблеей ООН 10 дек. 1948 г.]. – Москва: Издательство: Проспект. 2022. – С. 8.
4. <https://sovman.ru/wp-content/uploads/2023/06/S5.pdf#page=184>
5. https://ru.wikipedia.org/wiki/Декларация_прав_человека_и_гражданина

6. Резолюцию Генеральной Ассамблеи ООН от 18 декабря 2013 г. № 68/167
«Право на неприкосновенность личной жизни в цифровой век». A/RES/68-167

7. Национальная электронная платформа педагогического образования:
<https://neppo.ru/news/что-такое-цифровизация-и-в-каких-сферах-она-применяется>

8. <https://cyberleninka.ru/article/n/sut-prava/viewer>